



MASHHUR BOBURIY MALIKALAR

Usanova Muxlisa

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti

Antropologiya va etnologiya yo‘nalishi

3-kurs hind-engliz guruhi talabasi

+998933047175

muxlisausanova03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar sulolasi tarixida muhim iz goldirgan malikalar – ayol shaxslarning siyosiy, ilmiy, madaniy va ma’naviy faoliyati yoritiladi. Boburiy malikalar davlat siyosatini shakllantirishda, xalqaro diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda, saroy madaniyatini rivojlantirishda va farzand tarbiyasida faol ishtirok etganlar. Gulbadan begin, Zebunniso begin, Qutluq Nigor xonim kabi malikalar o‘z ijodiy salohiyati, donoligi va siyosiy tafakkuri bilan o‘z zamonasida e’tirof etilgan. Ularning adabiy va tarixiy merosi bugungi kunda ham qadrlanmoqda. Maqolada ushbu malikalar hayoti asosida Boburiylar davridagi ayolning ijtimoiy roli va madaniy mavqeい tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Boburiy malikalar, siyosiy faoliyat, madaniyat, ayollar tarixi, Gulbadan begin, Zebunniso begin, Boburiylar davri, fors adabiyoti, diplomatiya, saroy hayoti.

ИЗВЕСТНЫЕ МАЛИКИ ИМПЕРИИ БАБУРИДОВ

Усанова Мухлиса

Ташкентский государственный университет востоковедения

Факультет восточной цивилизации и философии

Направление: антропология и этнология



Студентка 3 курса, группа хинди-английский

+998 93 304 71 75

muxlisausanova03@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается политическая, научная, культурная и воспитательная деятельность женщин-малик династии Бабуридов, сыгравших важную роль в истории империи. Малик династии активно участвовали в формировании государственной политики, развитии дипломатии, поддержке придворной культуры и воспитании будущих правителей. Такие личности, как Гульбадан бегим, Зебуннисо бегим, Кутлуг Нигор ханум, признаны выдающимися женщинами своего времени. Их литературное и историческое наследие продолжает изучаться и сегодня. В статье анализируется социальная и культурная роль женщин в эпоху Бабуридов.

Ключевые слова: малик Бабуридов, политическая деятельность, культура, история женщин, Гульбадан бегим, Зебуннисо бегим, эпоха Бабуридов, персидская литература, дипломатия, придворная жизнь.

FAMOUS BABURID QUEENS

Usanova Muxlisa

Tashkent State University of Oriental Studies

Faculty of Eastern Civilization and Philosophy

Department of Anthropology and Ethnology

3rd-year student, Hindi-English group

+998 93 304 71 75

muxlisausanova03@gmail.com

Abstract: This article explores the political, intellectual, cultural, and educational contributions of the queens of the Baburid dynasty who played



significant roles in shaping its history. These royal women actively participated in state politics, promoted diplomatic relations, supported courtly culture, and were key figures in the upbringing of future rulers. Notable figures such as Gulbadan Begum, Zebunniso Begum, and Qutluq Nigor Khonim are recognized for their wisdom, creativity, and leadership. Their literary and historical legacies remain valuable sources for researchers today. The article analyzes the social and cultural status of women during the Baburid era.

Keywords: Baburid queens, political activity, culture, women's history, Gulbadan Begum, Zebunniso Begum, Baburid era, Persian literature, diplomacy, court life.

Boburiylar sulolasi (1526–1857) nafaqat o‘zining yuksak siyosiy va madaniy merosi bilan, balki ayollar – malikalarning faol ishtiroki bilan ham ajralib turadi. Bu sulola vakillari orasida yuksak aql, tafakkur, diplomatik mahorat va adabiy salohiyatga ega bo‘lgan ko‘plab malikalar bo‘lgan. Ular nafaqat hukmdorlarning yaqinlari sifatida, balki mustaqil shaxslar, siyosiy vositachilar va madaniyat namoyandalari sifatida tarixda iz qoldirishgan. Boburiy malikalar hayoti orqali biz o‘sha davrning ijtimoiy tuzumi, gender rollari, madaniy va siyosiy hayotini chuqurroq anglaymiz.

Boburning onasi **Qutluq Nigor xonim** Temuriylar naslidan bo‘lib, donoligi va farzandiga bergen tarbiyasi bilan mashhur bo‘lgan. U o‘zining zukkoligi, siyosiy masalalardagi nozik sezgirligi va ma’naviy kuchi bilan Bobur hayotida muhim rol o‘ynagan. Tarixiy manbalarda Bobur unga doimiy maslahat qilgani, ko‘plab qarorlarida onasining fikrini inobatga olgani aytildi. Bobur o‘zining siyosiy faoliyatini boshlaganida, ona va o‘g‘il o‘rtasidagi aloqalar kuchli bo‘lib, o‘g‘ilning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Qutluq Nigor xonim Boburga nafaqat siyosiy, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya bergen, bu esa uning keyinchalik boshqaruvda ko‘rsatgan yuksak kompetentsiyasida o‘z ifodasini topgan.



Onaning o‘g‘il shaxsiyatini shakllantirishdagi o‘rni, ayniqsa, Sharq madaniyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq madaniyatida ona tarbiyasi doimo muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va ayollarning oilaviy hayotdagi roli katta hurmatga sazovor bo‘lgan. Qutluq Nigor xonimning tarbiyasi Boburning siyosatga bo‘lgan yondashuvini, uning xalqlar bilan aloqalarini, ijtimoiy nizolarni hal etishdagi metodlarini shakllantirgan. Unga o‘zining onalik va hukmdorlikni uyg‘unlashtirishdagi mahorati orqali, Bobur davrining eng muvaffaqiyatli va adolatli hukmdorlaridan biri bo‘lishda yordam berdi.

Shuningdek, Qutluq Nigor xonimning siyosiy tafakkuri va mustahkam xarakteri Boburning hayotida zarur bo‘lgan diplomatik qobiliyatlarni o‘zlashtirishiga turtki bo‘lgan. Onaning shaxsiy fazilatlari va uzoqni ko‘ra bilish xususiyatlari, Boburning ziddiyatli vaziyatlarda o‘zining siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlashga va keng ko‘lamli ittifoqlarni yaratishga yordam bergan. Bu esa Boburning saltanatida siyosiy barqarorlikni ta’minlashga, dunyoqarashi keng bo‘lishiga, qarorlarining xolis va ongli bo‘lishiga olib kelgan.

Boburning opasi **Xonzoda beginm** ham o‘zining siyosiy lavozimi va dinlararo, xalqlararo ittifoqlarni shakllantirishdagi roli bilan tanilgan. U o‘z davrining eng nufuzli ayollaridan biri bo‘lib, ayniqsa, turk, afg‘on va fors zodagonlari bilan aloqalarda muhim diplomatik vositachi bo‘lgan. Xonzoda beginning siyosiy faoliyatidagi eng yirik yutuqlardan biri – o‘zining nikoh ittifoqlari orqali davlatlar o‘rtasida barqarorlikni ta’minlashdagi muvaffaqiyatlaridir. Uning diplomatik xizmatlari va nikohlar orqali amalga oshirilgan ittifoqlar Boburiylar sulolasining siyosiy va strategik maqsadlariga erishishida katta ahamiyat kasb etgan.

Xonzoda beginning nikoh ittifoqlari davlatlararo aloqalarni mustahkamlash va o‘rtadagi nizolarni bartaraf etish uchun samarali vosita sifatida ishlatalgan. Nikohlar orqali ular nafaqat siyosiy barqarorlikni ta’minlagan, balki diniy va etnik jahbada turli xalqlar o‘rtasidagi tinchlikni saqlashga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qilgan. Bu ayollarning o‘rta asrlar



davlatlarida nafaqat oilaviy roli, balki davlat siyosatida ham beqiyos strategik o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Xonzoda beginning bunday diplomatik faoliyati, shuningdek, ayollarining o‘z zamonlarida faqat oilaviy emas, balki davlat siyosatidagi muhim rolini qanday egallaganini yoritadi. Xonzoda beginning siyosiy qarorlarida ko‘rsatilgan ilg‘or tafakkur va donoligi nafaqat o‘zining, balki butun Boburiylar sulolasining tarixiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning shaxsiy va siyosiy faoliyati, albatta, o‘sha davr ayollarining nafaqat oila, balki davlat ishlari va xalqaro diplomatiya masalalariga bo‘lgan alohida yondashuvini tasdiqlaydi.

Boburiy malikalar orasida eng mashhurlaridan biri bu — **Gulbadan beginmdir**. U Boburning qizi bo‘lib, o‘zining “Humoyunnoma” asari orqali saroy ichki hayoti, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar, hukmdorlararo ziddiyatlar, siyosiy kurashlar va dinlararo aloqalar haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Gulbadan begin fors tilida yozgan ilk musulmon malikalaridan biri bo‘lib, uning asari nafaqat tarixiy, balki adabiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning yozganlari o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini tasvirlashda birinchi darajali manba hisoblanadi.

“Humoyunnoma” asarida Gulbadan begin o‘zining ko‘p yillik tajribasi va shaxsiy kuzatishlari asosida Boburiylar sulolasining ichki hayoti va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini tasvirlab, ayni paytda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ijtimoiy rollar va gender munosabatlarini yoritgan. U saroyda ayollarining siyosiy roli, ularning o‘rni, hatto qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ham ta’kidlagan. Gulbadan beginning asari orqali biz o‘sha davr saroyining nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy tarkibini chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Shuningdek, Gulbadan beginning yozuvi Boburiylar sulolasining tarixiy portretini yaratishda beqiyos o‘rin tutadi. Uning asari nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega, chunki u o‘z zamonining tafakkuri, adabiy



ifodasi va tilining shakllanishi haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Gulbadan beginning yozganlari ko'plab olimlar va tarixchilarga o'sha davrning siyosiy, madaniy va shaxsiy hayotini o'rganishda katta yordam berdi.

Uning asari gender munosabatlari, ayollarning saroy va siyosatdagi roli, shuningdek, hukmdorlarning shaxsiy hayotiga oid muhim tafsilotlarni saqlagan holda, Sharq tarixinining nozik va murakkab qirralarini yoritadi. Gulbadan beginning "Humoyunnomasi" nafaqat tarixiy yozuv, balki Boburiylar davrining ijtimoiy tuzumini tushunishga yordam beruvchi noyob manbaga aylangan.

Zebunniso begin, boburiy Avrangzebning sevimli qizi bo'lib, o'z davrining eng mashhur adibalaridan biri sifatida tanilgan. U fors tilida she'rlar yozgan va "Maxfiy" taxallusi bilan tanilgan. Zebunniso beginning asarlarida tasavvuf, muhabbat, ayol falsafasi va ijtimoiy kechinmalar mujassam bo'lib, ular o'z zamonining falsafiy, diniy va madaniy nuqtai nazarini aks ettiradi. Uning she'rlarida insonning ruhiy holati, hayot va o'lim haqida chuqur tafakkur, ayollarning ijtimoiy roli va muhitdagi o'zgarishlarga qarshi fikrlar keng o'rinn tutgan.

Zebunniso begin faqat shoiralik faoliyati bilan emas, balki madaniy hamkorlik va ilmiy muhitni rivojlantirishdagi faoliyati bilan ham ajralib turadi. U madrasalar ochish, kutubxonalarni boyitish, ilmiy ulamolarni qo'llab-quvvatlash orqali o'zining madaniy homiylik faoliyatini amalga oshirgan. U o'z saroyida ilmiy va madaniy tadbirlarni tashkil etib, ilm-fan va adabiyotga katta hissa qo'shgan. Zebunniso beginning ilmiy va madaniy merosi, ayniqsa, diniy va falsafiy ijtimoiy nuqtai nazarlarda ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning hayotidagi o'rni va jamiyatdagi rolini o'zgartirishga qaratilgan qadriyatlarni ko'rsatadi.

Mohim begin, Boburiy hukmdor Humoyunning rafiqasi va imperator Akbarning onasi bo'lib, o'zining ma'naviy pokligi, donoligi va onalik tarbiyasi bilan tanilgan. U o'z davrida saroyda odob-axloq, diniy tarbiya va an'analarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Mohim beginning ta'lim-tarbiya sohasidagi



faoliyati nafaqat saroy hayoti, balki keng jamiyat uchun ham ahamiyatga ega bo‘lib, uning ta’siri boburiylarning siyosiy va madaniy yuksalishiga hissa qo‘shgan.

Akbarning diniy bag‘rikenglik siyosatida uning onasining tarbiyasi asosiy rol o‘ynaganini ko‘plab tarixchilar e’tirof etadi. Mohim begin Akbarni nafaqat siyosiy masalalarda, balki diniy qarashlarda ham o‘zining bag‘rikengligi va to‘g‘ri yo‘lni tanlashga undagan. Uning tarbiyasi orqali Akbar, keyinchalik, diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borishga qaror qilgan va Hindistonning turli diniy guruhlariga nisbatan ochiq, adolatli yondashuvni ishlab chiqqan.

Saroyda diniy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda, Mohim beginning roli ajralib turadi. U o‘zining donoligi va diniy sohada berilgan tarbiyasi orqali hukmdor Akbarning mustahkam siyosiy asoslarini yaratishda yordam bergen. Mohim beginning ta’siri nafaqat oila a’zolari, balki keng jamiyatga ham tarqalgan, uning onalik mas’uliyatlari va diniy bag‘rikenglik tamoyillari bugungi kunda ham tarixiy o‘rganishlarga asos bo‘lib qolmoqda. Mohim beginning madaniy va diniy merosi, Boburiylar sulolasining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushunishda beqiyos manba hisoblanadi.

Xulosa. Boburiy malikalar tarixda shunchaki saroy malikasi emas, balki faol siyosiy arboblar, donishmand yozuvchilar va madaniy homiyalar sifatida o‘z izlarini qoldirishgan. Ularning hayoti va faoliyati Boburiylar davrini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat hukmdorlarning yaqinlari sifatida, balki mustaqil shaxslar, siyosiy vositachilar va madaniyat namoyandalari sifatida tarixda iz qoldirishgan. Boburiy malikalar orqali biz nafaqat bir sulolaning ichki tuzilmasini, balki o‘sha davr jamiyatidagi ayol obrazini, ularning salohiyati va imkoniyatlarini chuqurroq anglaymiz. Ularning siyosiy faoliyati, adabiy merosi va madaniy homiyliklari orqali biz o‘sha davrning jamiyatida ayollarning o‘rni, roli va imkoniyatlarini ko‘ramiz. Boburiy malikalar, o‘z asarlarida, siyosiy qarorlarida va jamiyatdagi faoliyatlarida yuqori tafakkur va mahoratni ko‘rsatganlar. Shu jihatdan, bu mavzu antropologik, tarixiy va gender yondashuvlarda alohida o‘rganilishi zarur bo‘lgan muhim sohalardan biridir.